



JALOLIDDIN RUMIY IJODINI O'RGANILISHI VA UNING HAYOT FAOLLIYATI

Karimova Begoyim

Andijon davlat pedagogika institute, magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Rumiylarning ijodi, uning asarlari haqida soʻz boradi. Rumiylarning adabiyotidagi oʻrni, ijodi boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar va uning asarlarining asosiy gʻoyalari haqida soʻz yuritilgan.

Kalit soʻzlar: Jaloliddin Rumiylarning "Masnaviy", "Ichindagi ichindadir", gʻazallar.

Kitob oʻqishdan oldin oʻzimizni oʻqishni oʻrganaylik.

Jaloliddin Rumiylarning

Rumiylarning Jaloliddin (1207, Balx — 1273, Koʻnya) — shoir va mutafakkir. Tasavvufdagi mavlaviya tariqatining asoschisi. Arab, fors va turkiylarning tillarida ijod qilgan. Otasi Bahouddin Valad sufiylar va fiqh donishmandi boʻlgan. Shu bois ham sulton Muhammad Xorazmshoh (1199—1220) saroyga taklif etgan. Pekin Valad uning taklifini rad etib, maktabdorlik hamda ilmiy-ijodiy ish bilan mashgʻul boʻlgan. Xorazmshoh bilan kelisholmagan Valad haj safari bahonasida oilasi bilan Balx shahrini tark etgan. Rumiylarning Makka yoʻlida Farididdin Attor bilan uchrashgan. 1220-yil Rum sultoni Alouddin Kayqubod I ning daʼvati bilan Koʻnya (Kichik Osiyo) ga kelgan. Rumiylarning Jaloliddin Halab, Damashq va Bagʻdod madrasalarida oʻqigan, mudarrislik qilgan.

Rumiylarning Jaloliddin shaxsiyati kamolotida shoir va shayx Shams Tabriziylarning oʻrni katta. U 3 yil Rumiylarga dars beradi: falsafa, xususan, soʻfiylarning taʼlimotini oʻrgatadi. Shoirning oʻzi ham bir baytida "Agar Attor menga ruh baxsh etgan boʻlsa, Shamsi Tabriziylarning tilsim kalitini tutqazdi", degan. 1244-yil Rumiylarning Jaloliddin ustozini nihoyatda hurmat qilgani uchun oʻz gʻazallarida "Shamsi Tabriziylarning", "Shamsi" taxalluslarini qoʻllay boshlagan. Shoir gʻazallarining "Shamsi Tabriziylarning devoni" nomi bilan shuhrat qozonishining bois ham shunda [42 ming baytli "Devoni Kabir" ("Ulugʻ devon")ning ikkinchi nomi "Devoni Shamsi Tabriziylarning"]. Rumiylarning Jaloliddin ijodi usmonli turk adabiyotining sarchashmasi hisoblanadi.



Rumiy Jaloliddin asarlari ko'pchilik forsig'o'y va turkigo'y shoirlar ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan, masnaviyxonlik xalqimiz o'rtasida keng tarqalgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida R.ning "Masnaviyi ma'naviy" asari saqlanadi. Istikdol yillarida Rumiy Jaloliddin hayoti va ijodiga kiziqish yanada kuchaydi. Sh. Shomuhamedov, A. Mahkam va boshqa shoirning turli janrdagi she'rlaridan namunalarni o'zbek tiliga tarjima qilishdi. Shoir Jamol Kamol "Masnaviyi ma'naviy" tarjimasini nihoyasiga yetkazdi, 6 kitobdan iborat bu yirik asarning 4 jildi bosilib chiqdi (2002, 2003). "Ichindagi ichindadir" asari ham o'zbek o'quvchilarining ma'naviy mulkiga aylangan.

Yurtimiz mustaqillikka erishganidan keyin, har sohada bo'lgani singari adabiyotshunoslikda ham, yangi tarixiy sharoitda ma'naviy merosimiz durdonalarini chuqurroq o'rganish imkoniyati kuchaydi. Zero, birinchi prezidentimiz aytganlaridek: "Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi- jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lidan muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitishda hal qiluvchi ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir". Darhaqiqat adabiyot, ma'naviyat insonni to'g'ri yo'lga boshlaydi. Qalbiga yaxshilik urug'larini ekadi, shunday ekan, O'rta asr musulmon Sharqining muazzam siymolaridan biri Jaloliddin Rumiy ham ana shunday zotlardan hisoblanadi. Zero, Mavlono Rumiy qoldirgan ma'naviy meros asrlarga tatigulik ahamiyatga molikdir. Jaloliddin Rumiyning falsafiy-ma'rifiy qarashlarini milliy istiqloq g'oyamizning asosini tashkil qilgan komil insonni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyati sifatida e'tirof etar ekanmiz, ularni har tomonlama va tizimli tarzda tadqiq etish dolzarb muammolardan biridir. Jaloliddin Rumiyni jahon miqyosidagi o'rni, boy falsafiy-ma'naviy merosi, jahon falsafasi va madaniyatiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Qariyb yetti asr bo'libdiki, Jaloliddin Rumiy shaxsi va merosi Sharq va G'arbni birdek qiziqtirib kelmoqda. Birgina uning "Ma'naviy masnaviy" asari o'rta asrlar Sharqidagi universitetlarda o'qitilib, bu asarni mukammal sharhlash layoqatiga ega bo'lgan ilm ahliga "masnaviyxon" unvoni berilishi fikrimizning tasdig'idir. Shunday qilib, Rumiy merosini o'rganish tadrijini mavlono daxldor bo'lgan musulmon Sharqidan boshlashimiz kerak bo'ladi. Mavlono Rumiy ijodini tadqiq qilishda Kichik Osiyo, Xuroson, Movarounnahr, Eron, Hindiston va Pokistonda "Masnaviy" asariga bitilgan sharhlar muhim



ahamiyatga egadir. Olmoniyalik sharqshunos Anna Mariya Shimmelning Jaloliddin Rumiylar ijodini, xususan, “Masnaviy”ni tadqiq etib yozgan asarlarida bu haqda yanada ko‘proq ma‘lumotlarga ega bo‘lamiz. Shuningdek, G‘arbiy Yevropa XVIII asr oxiridan boshlab siyosiy namoyondalari orqali Mavlono Rumiyni taniy boshladilar. J. de Vallenburg, J. fon Hammer, Fredrich Rukert, Jeyms Redxoo‘z, Reynold Nikolson va A.J.Orberi kabi olimlarni bunga misol qilishimiz mumkin. Umuman olganda, G‘arb olamida Jaloliddin Rumiylar ijodiga bag‘ishlangan juda ko‘plab tadqiqotlar mavjud, ammo ularda shunchaki sharqshunos yoxud tarjimon sifatidagi ilmiy izlanishlar olib borilganligini ko‘rishimiz mumkin. Mavlono Rumiylar ijodini diniy va falsafiy g‘oyalar bilan uyg‘un holda tadqiq etgan olimlar qatoriga Ch.Xumoi, M.Cha‘fari, R.Fish, R.Xadizade, N.Odilova va boshqalarni keltirish mumkin. Mazkur olimlarning qarashlarida Mavlono Jaloliddin Rumiylar ijodi “vahtadi vujud” konsepsiyasi asosida tadqiq etilganligi e‘tiborga molikdir. Shuningdek, bu tadqiqotlarda Mavlono Jaloliddin Rumiylar ijodi, islomgacha bo‘lgan davrdagi turli diniy-falsafiy g‘oyalar bilan qiyosiy ravishda tahlil etilgan. Movarounnahrda tasavvuf va Jaloliddin Rumiylar falsafiy merosini tadqiq qilish borasida XX asrning boshlarida rus sharqshunoslari: E. Bertels V.V.Bartold, A.Krimskiy va I.E.Goldsier tadqiqotlarini misol qilishimiz mumkin. Keyinchalik Mo‘minov, N.Komilov, V.Valixo‘jaev, J.Xolmo‘minov, G.Navro‘zova, O.B.Bozorov, R.T.Shodiev, U.Uvatov kabi o‘zbek olimlarining ilmiy izlanishlarini aytishimiz mumkin. Shuningdek, Rumiylar ijodiga bo‘lgan qiziqish mustaqillikdan keyingi yillarda kuchaydi. Jaloliddin Rumiylar asarlarining o‘zbek tiliga tarjima qilinishida Asqar Mahkam, Jamol Kamol va Ulug‘bek Hamdam kabi ijodkorlarning mehnatlari muhim ahamiyatga egadir. O‘z navbatida tasavvuf ta‘limoti xalqimiz ma‘naviy madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu ma‘noda, ma‘naviyatni yuksaltirish bevosita milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish bilan bog‘liq holda sodir bo‘ladi, albatta. Buning uchun esa allomalarimiz qoldirib ketgan ilmiy-madaniy merosimizdan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Moturudiy, Mahmud Zamaxshariy, Jaloliddin Rumiylar va boshqa shu kabi buyuk allomalar o‘zlarining ilmiy va madaniy meroslari bilan jahon madaniyatiga ulkan hissa qo‘shganlar. Mazkur allomalarning borliq, mavjudlik, insonparvarlik, adolat, imon, insof, diyonat, o‘zaro mehr-oqibat, vijdon sohasidagi diniy-falsafiy qarashlari, ayniqsa, yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga



qaratilgan o'g'itlari inson, jamiyat, davlat o'rtasidagi munosabatlarning ma'naviy-axloqiy asoslari rivojida muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, ma'naviyaxloqiy taraqqiyotning g'oyaviy asoslarini o'rganishda O'rta Osiyoda vujudga kelgan tasavvuf ta'limotining komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyatini tadqiq etish muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham bugungi kunda tasavvuf falsafasining buyuk namoyandalari Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Xoja Axror, Bahouddin Naqshband, Jaloliddin Rumiy va boshqa mutasavvuflarning komil inson to'g'risidagi qarashlari muhim manbalar qatoriga kiradi. Mazkur allomalarning qarashlarida ifodalanishicha, insonning komillik darajasiga yeta olishi bu shunchaki orzu emas, balki uning ezgulikka xizmat qilish, ilmlarni o'zlashtirish va rivojlantirish, ezgu ishlar qilish jarayonida erishilishi mumkin bo'lgan aniq hodisa yoki oliy darajadagi ma'naviy yuksaklik hisoblanadi. Rumiy ijodida inson erki, ma'naviy komillik, o'zlikni anglash, tavakkul, Olloh ishqi, ma'rifat, shariat, tariqat, shukr qilib yashash, nafsni yengish, qanoat, haqiqat, adolat, xayr-u saxovat kabi o'ndan ortiq g'oyalar yetakchilik qiladi. Mazkur tushunchalarni ifodalashda go'zal badiiy ifodalardan foydalanadi. Masalan, Rumiyning asarlarida Haq ta'rifi juda ko'p keltirilgan. Ollohning buyukligi, uning mehribonligi va barchaga tengligi go'zal misralarda tasvirlanadi: Haq o'zi jonlarga deb nur yog'durur, Baxtiyorlar unga doman to'ldirur. Umuman, Haq va haqiqatdan olis, na olam, na odam hikmatini anglamaydigan kimsalarga oddiy hayot haqiqatlari misolida borliqni, Ollohni anglash yo'li ko'rsatiladi. "Taom bilan to'lgan medada hikmat bo'lmas", deydi Z.Misriy. Bu - nafs, xirs, ta'ma bandalari hikmatdan uzoqligi bildiradi. Chunki, hikmat pokiza ko'ngil va taskin topgan ruhlarga Olloh tomonidan tuhfa yuboriladigan ilohiy so'z hamda ma'nolardir. Hikmat nurlari chin faqir, orif, diydortalab oshiq'larga foydaliroq bo'lgay, ular bu nurlardan ko'proq bahra oladilar va shukrona qiladilar. Ularning ilmi haqiqiy ilm, onglari, vujudlari ma'rifat nuri bilan jilolangan bo'ladi. Bu kabi toza qalb sohiblari Sharq tarixida ko'plab uchraydi. Ularning asarlarida ham rumiyyona falsafa yetakchilik qiladi. Boshqacharoq aytganda, ular qalbining pokizalanishida Rumiy ijodiyotining o'rni beqiyosdir. Jumladan, Mashrab asarlarida ham Rumiy fikrlariga hamohanglik kuzatiladi: Ham Avvaldur, ham Oxirdur va ham Zohir-u ham Botin, Muhaqqaq bandalar hozir bilur bir zoti Allohni. Mavlono Rumiy komil inson deganda mehr-muruvvatli, adolatli, to'g'ri so'z, vijdonli, or-nomusli, irodali, tadbirkor,



matonatli, o‘z ishiga fidoyi, ma’naviyati yuksak kishilarni tushungan. Komil insonni shakllantirish Vatanga sadoqat, yurt tinchligini saqlash tuyg‘usi bilan bog‘liq ekan, uning quyidagi jihatlariga e‘tiborni qaratishimiz lozim. Bular Vatanga fidoyi bo‘lish, na‘munali axloq-odob, xushmuomala bo‘lish, mehnatga to‘g‘ri va ongli munosabat, axillik, insoniylik, jonkuyarlik, kamtarlik, do‘stlik va o‘zaro yordam, intizomli bo‘lish, faollik, maqsad sari intilish, rostgo‘ylik, ishbilarmonlik va tadbirkorlik, oilani mustahkam saqlash, or-nomusli bo‘lish, sog‘lom va jismonan yetuklikka intilish, mas‘uliyatni his qilish, vijdonlilik va boshqalar. Shuningdek, komillikka intilayotgan shaxs o‘z-o‘zini nazorat qilishi, o‘z-o‘zini tarbiyalashi yuksak mas‘uliyatni his qilishi, g‘oya uchun kurashishi, mustahkam e‘tiqodga ega bo‘lishi, ijtimoiy faol bo‘lishi lozim. U mustahkam imon-e‘tiqod, g‘oya va insoniylik fazilatlariga ega bo‘lgan, millat taqdiri va millat tuyg‘usi bilan yashaydigan, o‘zida yangi davr xususiyatlarini ifoda etadigan, ongli, ijodkor insondir. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Jaloliddin Rumiy buyuk shoir, alloma, tasavvuf vakilidir. Adabiyotshunos olim Jamol Kamol ta‘biri bilan aytganda butun “bashariyat shoiridir”. Butun millat, bashariyat shoiri bo‘lmish Rumiy ijodini o‘rganishimiz, ilmiy tadqiqotlar olib borishimiz hamda ilm va omma ahliga tadqiq qilishimiz biz adabiyotshunoslar oldidagi dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И А. Ўзбекистон иқсодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида, Т.: “Ўзбекистон “
2. Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir. -Т.: Kamolat, 2018
3. Абу Наср Фаробий.Фозил одамлар шаҳри.-Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти,1993
4. Ibrohimov.A “Jahon adabiyoti” jurnali, 2005 yil, 2-soni
5. Uchmoqqa qanot yo‘q vale uchgayman [rivoyatlar va ruboiylar], Т., 1994; Injular ummoni, Т., 1988; Ichindagi ichindadir, Т., 1997; Ishq daftari [ruboiylar], Т., 2000; Masnaviyi ma‘naviy [6 j.li], 1—4j.lar, Т., 20022003.
6. R., Jaloliddin Rumiy, Т., 1986; Jumayev R., Mavlono Jaloliddin Rumiy, Т., 2003. Hamidjon Homidov, Ergash Ochilov.